



№3

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas‘ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali

23.11.2022-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №R-566966 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №049864




MUNDARIJA

1.	Шаисламова Наргиза Кабиловна	Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi	O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	Oliy ta‘lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi	Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich	Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No‘rbo‘ta o‘g‘li	Kredit riski	60
9.	Курбонов Саид Акбарович	АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иктисодиётга таъсири	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi	Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna	Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich	Rivojlangan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich	Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna	O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Юсупов Бехзод Юсуп угли	Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улугбек Ванситович	Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Баракаев Отабек Отакулович	Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга тахлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Hayat	Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli	Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Чориева Нигина Қахрамановна	Классик иктисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155





21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Кузиева Динора Баходировна	Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш	173
24.	Умарова Гулзодахон Қодирбековна	Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budget mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187
26.	Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193
27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash	206
29.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari	213
30.	Tilabov Nasrulla Tashmurotovich	O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-diyagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31.	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32.	Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich	Kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33.	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari	244
34.	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35.	Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36.	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37.	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38.	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39.	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash	591
40.	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system	297
41.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42.	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari	310
43.	Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317





44.	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida mevachilik tarmog‘ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45.	Mirzataev Muratbaevich	Salamat Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46.	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo‘llari	335
47.	Qidirmiyazov Sherniyazovich	Ajiniyaz Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun‘iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48.	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49.	Karimov Gapardjonovich	Eminjon Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50.	Toshev Nurbek Janon o‘g‘li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51.	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365
52.	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko‘rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo‘llari	371
53.	Sultanova Nigora Xikmatxo‘ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54.	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55.	Abduraxmonova Alimov Baxodirovich	Munisa, Ulug‘bek Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56.	Axmedov Shoymurod Azamat o‘g‘li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo‘llari	395
57.	Xamdamov Komilovich	Shavkat Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58.	Ruziyev G‘anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta‘minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalari	411
59.	Atamuratova Muzafarovna	Gulrux Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo‘yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60.	Mirzayeva Charos G‘ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shisdagi o‘rni: Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61.	Toshpulatov Akromovich	Davron Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62.	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari	451





XAVFSIZ TURIZM TUSHUNCHASINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

Mardonova Malika Asatilloevna

*“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti
mustaqil izlanuvchisi*

e-mail: malikakamron2017@gmail.com

orcid: [0009-0000-1812-0092](https://orcid.org/0009-0000-1812-0092)

Annotatsiya. Ushbu maqolada xavfsiz turizm tushunchasi va uning nazariy-uslubiy asoslari o‘rganilgan. Jumladan, xavfsiz turizmga oid ta‘riflar, ko‘plab olimlarning qarashlari va xavfsiz turizm tushunchasining rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Shuningdek, xavfsiz turizm tushunchasini ommalashtirish bo‘yicha xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar. Xavfsiz turizm, xalqaro turizm tashkiloti, safety and security tushunchalari, elitar xavfsiz turizm, ommaviy kafolatlangan turizm.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КОНЦЕПЦИИ БЕЗОПАСНОГО ТУРИЗМА

Мардонова Малика Асатиллоевна

независимый исследователь

*Международного университета туризма и
культурного наследия «Ипак цўли»*

e-mail: malikakamron2017@gmail.com

orcid: [0009-0000-1812-0092](https://orcid.org/0009-0000-1812-0092)

Аннотация. В данной статье изучены концепция безопасного туризма и её теоретико-методологические основы. В частности, проанализированы определения, связанные с безопасным туризмом, взгляды многих учёных, а также этапы развития концепции безопасного туризма. Кроме того, представлены выводы и предложения по популяризации концепции безопасного туризма.

Ключевые слова. Безопасный туризм, Международная организация по туризму, концепции safety и security, элитарный безопасный туризм, массовый гарантированный туризм.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE CONCEPT OF SAFE TOURISM

Mardonova Malika Asatilloevna

*Independent Researcher of
the International University of*

Tourism and Cultural Heritage “Silk Road”

e-mail: malikakamron2017@gmail.com

orcid: [0009-0000-1812-0092](https://orcid.org/0009-0000-1812-0092)

Annotation. This article examines the concept of safe tourism and its theoretical and methodological foundations. In particular, definitions related to safe tourism, the views of numerous scholars, and the stages of development of the concept of safe tourism are analyzed. Furthermore, conclusions and suggestions for promoting the concept of safe tourism are provided.

Keywords. Safe tourism, International Tourism Organization, safety and security concepts, elite safe tourism, mass guaranteed tourism.

Kirish.

Hozirgi davrda turizm mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga katta ta‘sir ko‘rsatadigan,





budjet daromadlarini shakllantirishda muayyan hissa qo‘shadigan sohalardan biri hisoblanadi. Bu sohaning rivojlanishi mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasi jarayonining jadallashishiga, ichki iqtisodiy tuzilmalarning takomillashishiga, turizm bilan bog‘liq ravishda faoliyat olib boruvchi sohalarning rivojlanishiga ijobiy ta‘sir qiladi. Butun dunyo bo‘yicha turizm barqaror suratlarda o‘tib bormoqda. Xalqaro turizm tashkilotining ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda turistik tashriflar soni o‘tgan yilga nisbatan 11,2%ga oshib, 1,4 mlrdan ko‘proq bo‘ldi, joriy yilda turizm daromadlari 1,6 trillion AQSh dollariga, turizm sohasidagi umumiy eksport (shu jumladan yo‘lovchi tashish) rekord darajadagi 1,9 trillion AQSh dollariga yetdi. Ushbu ko‘rsatkichlar orqali turizm sohasi ahamiyati, bugungi kun insonlar hayotining ajralmas bo‘lagi, qolaversa, iqtisodiy tomonlama ba‘zi muammolarning eng optimal yechimi ekanligini anglash mumkin. Xalqaro turizm tashkiloti Bosh Kotibi Zurab Pololikashvili “Iqtisodiyotning noaniq va beqaror rivojlanish sharoitida eng asosiy ishonchli tarmoqlardan biri bo‘lib qolayotgan global turizm 2024-yilda pandemiyadan to‘liq qutuldi va ko‘p joylarda mehmonlar soni, ayniqsa daromadlar ham yuqori bo‘ldi. 2025 yil davomida ham kuchli talab tufayli rivojlanish davom etadi, bu esa rivojlangan va yangi borayotgan yo‘nalishlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo‘shadi.

Bu bizning insonlar va sayyorani turizm rivoji markaziga qo‘yish borasidagi mas‘uliyatimizni yanada oshirmoqda”- deb ta‘kidlaydi. Yuqorida qayd qilingan ma‘lumotlarga tayangan holda, shuni aytishimiz mumkinki, global miqyosda barcha mintaqa va hududlarga insonlarning dam olishga intilishi, hech bir shubhasiz, ma‘lum bir muddat oralig‘ida notanish joylarga hordiq chiqarish va safarlar uyushtirish yildan - yilga ommalashmoqda. Ammo insonlarning sayohat qilishi, doimiy yashash joyidan boshqa joyda dam olishi, yangi hududlarni ko‘rishi yoki shifobaxsh hududlarda salomatligini tiklashi va safar davomidagi boshqa xizmatlardan foydalanish chog‘ida xavfsiz dam olish eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda yer yuzasida turli xil siyosiy to‘qnashuvlarning avj olganligi, bir qancha virusli kasalliklarning hududlarda keng tarqalganligi, turli xil urf-odat va mentalitetga xos millatlarning har xil yashash tarziga ega bo‘lgan bir muhitda, dam olishga intiluvchilarning sonini kun sayin oshib borayotganligini va mamlakatlar ham ushbu sohaga strategik tarmoq sifatida e‘tibor qaratayotganini yaqqol guvohimiz. Ushbu sharoitda insonlar qay tarzda qulay va sifatli turistik xizmatlardan foydalanish imkoniga ega bo‘lishadi? Bu kontekstda ichki va tashqi xavfsizlik xavflari soni ortib bormoqda, ular tobora halokatli va oldindan aytib bo‘lmaydigan darajaga kelmoqda. Tabiiy va texnogen xavflar, jumladan, favqulodda ekologik vaziyatlar, sayohatchilarni sayohatlari davomida doimiy ravishda kuzatib boradi. Baxtsiz hodisalar, yo‘l-transport hodisalari, aviatsiya hodisalari, xizmatlarning kamchiliklari tufayli sayohatchilarning hayoti, salomatligi va mol-mulkiga zarar yetkazish holatlari kabi boshqa xavflar ham faollik ko‘rsatmoqda. Xorij tajribasini o‘rganish, rivojlangan mamlakatlarda xavfsiz dam olish muhitini ta‘minlash tizimlari mavjudligini va ular orqali turizm xizmatlarini iste‘molchilarga optimal darajada taqdim qilish mumkinligini namoyon qiladi.

Bizningcha, turizm sohasini mamlakat iqtisodiyotida tutgan o‘rnini belgilaydigan bo‘lsak, uning xavfsizlik tomonlarini, inson hayoti, yashash tarzi, qulay va qo‘rqusiz muhit dolzarbligini e‘tibordan chetda qoldirmasligimiz kerak bo‘ladi. Shubhasiz, Xavfsiz turizmning rivoji mamlakat iqtisodiyotiga munosib hissa qo‘shish bilan bir qatorda, xalqaro munosabatlarda, aholi turmush tarziga ham katta ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar sharhi.

Bugungi kunda xavfsiz turizm tushunchasi turizm industriyasining ajralmas tarkibiy qismi sifatida shakllanib bormoqda. Turizmning barqaror rivojlanishi bevosita turistlarning hayoti, sog‘lig‘i va mulki xavfsizligi bilan bog‘liq bo‘lib, bu masala xalqaro miqyosda dolzarb ilmiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi [1]. Olimlarning fikriga ko‘ra, xavfsiz turizm nafaqat jismoniy xavfsizlikni, balki ekologik, sanitariya-epidemiologik, transport va axborot xavfsizligini ham o‘z ichiga oluvchi kompleks tushunchadir [2].





So‘nggi yillarda turizm xavfsizligini ta‘minlashning nazariy-uslubiy asoslarini ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Tadqiqotlarda xavfsizlik omili turistlarning sayohat yo‘nalishini tanlashdagi asosiy mezonlardan biri ekanligi ta‘kidlanadi [3]. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda sog‘liqni saqlash va sanitariya standartlari turizm xavfsizligining muhim elementi sifatida qaralmoqda [4].

Ilmiy manbalarda xavfsiz turizm konsepsiyasi risklarni boshqarish nazariyasi bilan chambarchas bog‘liq holda tahlil qilinadi. Tadqiqotchilar turizm sohasidagi xavflarni oldindan baholash, monitoring qilish va favqulodda vaziyatlarga tayyorlik tizimlarini rivojlantirish zarurligini qayd etadilar [5]. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellekt asosidagi kuzatuv tizimlari turistlar xavfsizligini ta‘minlashning zamonaviy vositalari sifatida e‘tirof etilmoqda [6].

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, xavfsiz turizmni rivojlantirishda davlat boshqaruvi, xususiy sektor va mahalliy aholining hamkorligi muhim ahamiyatga ega [7]. Yevropa va Osiyo davlatlarida turistik hududlarda xavfsizlik infratuzilmasini takomillashtirish, turistlarga tezkor axborot yetkazish hamda sug‘urta xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha samarali mexanizmlar joriy etilgan [8]. O‘zbekistonda ham turizmni rivojlantirish strategiyalarida xavfsizlik masalalariga alohida e‘tibor qaratilib, xalqaro standartlarga mos tizimni shakllantirish bo‘yicha ilmiy va amaliy ishlar olib borilmoqda [9].

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy jihatlarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqotda turizm xavfsizligi bilan bog‘liq ilmiy konsepsiyalar, xalqaro tajribalar hamda zamonaviy nazariy qarashlar tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy metodlari — tahlil, sintez, induksiya, deduksiya, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Tahlil metodi yordamida xavfsiz turizmning tarkibiy elementlari, asosiy tamoyillari va unga ta‘sir etuvchi omillar o‘rganildi. Sintez metodi orqali turli ilmiy qarashlar umumlashtirilib, xavfsiz turizmning yagona nazariy modeli shakllantirildi.

Qiyosiy tahlil metodi asosida xorijiy davlatlarning turizm xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha tajribasi o‘rganildi va ularning samarali jihatlari aniqlashtirildi. Tizimli yondashuv orqali xavfsiz turizm iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va tashkiliy omillarning o‘zaro bog‘liq tizimi sifatida tadqiq etildi.

Shuningdek, tadqiqotda xalqaro tashkilotlarning hisobotlari, ilmiy maqolalar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda zamonaviy ilmiy adabiyotlardan nazariy manba sifatida foydalanildi. Mazkur metodologik yondashuv mavzuning ilmiy mohiyatini chuqur yoritish hamda asoslangan xulosalar ishlab chiqishga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar.

Turizm sohasida olimlarning olib borgan bir qancha tadqiqotlari va ular tomonidan yaratilgan va tarmoqning rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shgan adabiyotlarni tahlil qilish natijasida dunyoda turizm sohasining rivojlanishi va uning negizida xavfsiz sayohatlar tushunchasini paydo bo‘lishini shartli ravishda 5 bosqichga ajratish mumkinligi aniqlandi.

Birinchi bosqich- (antik davrlardan XIX asrning o‘rtalariga qadar) davrida sayyohlikning asosiy turlari savdo, diniy ziyorat, bilim olish, sog‘lomlashtirish va sport bilan bog‘liq bo‘lgan. Qadimgi Yunonistondagi Olimpiya o‘yinlarida qatnashish va ularni tomosha qilish, karvon yo‘llari orqali tijorat yuritish, shuningdek, Ierusalim, Makka, Vatikan kabi muqaddas joylarga ziyorat qilish odamlarni sayohatga undagan. Quldorlik va feodalizm tuzumlarida aholining daromadli qismi sayohatchilarning asosiy qismini tashkil etgan. Shu bilan birga, kam daromadli aholi qatlamlari ham sayohat davomida pul topish imkoniyati tufayli sayohat qila olgan. O‘rta asrlarda sayohatlar, asosan, diniy va savdo maqsadlarida amalga oshirilgan. Ziyoratchilarning soni





ortib, yangi ziyoratgohlar paydo bo‘lgan. Savdogarlar esa uzoq masofalarga borib, turli xil mahsulotlar bilan savdo qilishgan.

Renessans davrida esa sayohatga bo‘lgan qiziqish yanada ortdi. Odamlar san’at, madaniyat va tarix bilan tanishish maqsadida sayohat qila boshladilar. Yevropalik zodagonlar o‘z farzandlarini ta’lim olish uchun boshqa mamlakatlarga yuborganlar.

XIX asrning o‘rtalariga kelib, transport vositalarining rivojlanishi sayohatni yanada osonlashtirdi. Temir yo‘llar va paroxodlar sayohat vaqtini qisqartirib, narxini arzonlashtirdi. Bu esa sayyohlikning ommalashuviga olib keldi. Sayohatning bu davri, shuningdek, geografik kashfiyotlar bilan ham ajralib turadi. Yevropaliklar yangi qit’alar va mamlakatlarni kashf etib, o‘zlarining dunyoqarashlarini kengaytirdilar. Ushbu kashfiyotlar sayyohlikning rivojlanishiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Ushbu davrda jamiyatning eng faol qatlamlari o‘z dunyoqarashlarini kengaytirishga, boshqa hududlarning madaniyati, tarixi va ijtimoiy hayoti bilan yaqindan tanishishga intildi.

Sayohatlar nafaqat dam olish, balki yangi bilimlar olish, tajriba almashish va shaxsiy rivojlanish vositasiga aylandi. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatning intellektual va ma’naviy salohiyatini oshirishga xizmat qildi. Bu bosqichni elitar xavfsiz turizm bosqichi deb atash mumkin. Elitar xavfsiz turizm bosqichida xavfsiz sayohatga bir qancha e’tibor paydo bo‘la boshlagan. Misol tariqasida Amir Temur davrida savdogarlar va ularga hamrohlik qiluvchi sayohatchilarga qarochilar hujum qiladigan bo‘lsa, o‘sha hududning hokimi jabr ko‘rganlarga mol mulkning ikki barobarida, davlat g‘aznasiga esa besh barobarida jarima to‘lagan. Bu zamonaviy sug‘urtaning paydo bo‘lishiga sababdir.

Ikkinchi bosqich-(XIX asr o‘rtalaridan- XXasr boshiga qadar) texnik taraqqiyot, ishlab chiqarishning sanoatlashuvi, transport va yo‘llar tarmog‘ining rivojlanishi elitar xavfsiz turizmning ommaviy kafolatlangan turizmga aylanishiga turtki bo‘ldi. Bunda, asosan, kafolatlangan mehnat ta’tillarining paydo bo‘lishi katta ahamiyatga ega.1841-yilda Tomas Kukning tashabbusi bilan amalga oshirilgan poyezddagi ommaviy sayohat tashkillashtirilgan turizm va sayohat xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ishonchli tarzda amalga oshirilgan turdan keyin sayohat qiluvchilarning soni nafaqat oshib bordi, endilikda sayohatlarning tarmoq sifatida rivojlanib, ommalashishiga sharoit paydo bo‘ldi.

Uchinchi bosqich–(XX asr boshidan o‘rtalarigacha) turizmning ommaviylashuvi va rivojlanishi davri. Bu davrda turizm keng xalq ommasi uchun ham hamyonbop va oson bo‘lgan shakllarni egallay boshladi. Ommaviy turistik sayohatlar xalq turizmi ko‘rinishida namoyon bo‘ldi. Bunga, ayniqsa, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya va AQSh kabi davlatlarda dam olish kunlari (hafta oxiri, uikend) an’anasining tez sur’atlar bilan rivojlanishi katta turtki berdi. Odamlar ish haftasidan so‘ng qisqa muddatli sayohatlarga chiqib, hordiq chiqarish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu esa mahalliy hududlar aro xavfsiz hordiq tizimlarining birin ketin yo‘lga qo‘yilishiga turtki bo‘ldi.

To‘rtinchi bosqich-(XXasrning 50-80yillari)-bu davrda turizm ommaviy sanoatlashgan va konveyer usulidagi shakllarga ega bo‘ldi. Turizm industriyasi juda tez suratlar bilan rivojlandi. Bu davrda turistik firmalar soni ko‘paydi, notanish odamlarni bir guruhga birlashtirib, sayohatga yuborish odati keng tarqaldi. Boshqacha qilib aytganda, turizm sohasida ommaviy ishlab chiqarish usullari joriy etildi va sayohatlar ko‘pchilik uchun osonroq va arzonroq bo‘la boshladi. Endilikda, mehmonxonlar sonining ko‘payishi, transport xizmatlari turlari(temir yo‘l, avtomobillar, havo transporti)ning ko‘payishi raqobatchilar orasida sifatli va xavfsiz muhitni shakllantirdi. Bu davrda Shimoliy Amerikada, hattoki, milliy bog‘lar va dam olish zonalari yaratilib, xavfsiz infratuzilma keng olomonni jalb qildi. 1975-yilda Butun Jahon turizm tashkiloti(UNWTO)ning tashkil qilinganligi va ko‘plab turist xavfsizligi borasidagi deklaratsiyalarning imzolanishi ushbu bosqichning ahamiyatli taraflaridan bo‘ldi.

Beshinchi bosqich-(XXasrning 90-yillaridan to h.k) turizm va turistik xizmatlar shakl va turlarining ko‘payish davri. Bu davrga kelib, mehmonxonalar, restoranlar va transport vositalarida yuqori darajadagi tozalik va dezinfeksiya talablari ishlab chiqila boshlandi. Xizmat ko‘rsatish





sohasida, xususan, turizmda ISO standartlarining ishlab chiqilishi va keng tarqalishi, yuqori xizmat sifatini beruvchi mehmonxonlardagi yulduzlar tasnifi va restoranlar uchun “MISHEL yulduzi” kategoriyasini tadbiq qilinishi, transport xizmatlarida texnika xavfsizligi va texnik ko‘rik sertifikatlarining joriy etilishi va qolaversa, sug‘urta xizmatlarining paydo bo‘lishi bu davr Xavfsiz turizm poydevorining asosi sifatida xizmat qildi.

Xulosa va takliflar.

Xavfsiz turizm – bu turizm sektorining barcha subyektlari (turistlar, mehmonxona va transport xizmatlari, tur operatorlari, mahalliy aholi va davlat organlari) o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga soluvchi va ularning faoliyati davomida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha xavflarni (salomatlik, ekologik, iqtisodiy, madaniy va jinoyat xavflari) oldini olish, minimallashtirish yoki bartaraf etish orqali inson hayoti, sog‘lig‘i, mulki, shuningdek atrof-muhit va madaniy merosning xavfsizligini kafolatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar, me‘yorlar va tamoyillarning uyushgan tizimidir.

✓ Nazariy tadqiqotlarni tahlil qilish orqali ko‘plab olimlar bir tomonlama ya‘ni xavfsiz turizm deganda turistlar xavfsizligini ta‘minlashning asos qilib olishgan. Aslida turizm sektorida aloqador bo‘lgan barcha ishtirokchilar xavfsizligini ta‘minlash bu -xavfsiz turizmdir.

✓ Xavfsiz turizmga oid tadqiqotlar yaqin- yaqindan paydo bo‘lgan tushuncha hisoblanib, bunda ko‘proq xorijiy tajribalarni tahlil qilish orqaligina natijalarga erishish yaxshi natija beradi. Shu sababli xavfsiz turizmga oid ma‘lumotlar o‘rganuvchilar uchun qo‘llanmalar shaklida boyitilishi lozim.

Demakki, xavfsiz turizm – bu turistlar, turistik korxonalar xodimlari hamda turistik infratuzilma korxonalari xodimlariga ta‘sir etadigan xavf va xatarlardan himoyalaniшни ta‘minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UN Tourism. *Tourism Safety and Security Guidelines*. Madrid, 2024.
2. World Health Organization. *Health and Safety in Tourism Report*. Geneva, 2023.
3. Peter Tarlow. *Tourism Safety and Risk Management*. Elsevier, 2024.
4. Gössling S., Scott D. *Pandemics, Tourism and Global Change*. Routledge, 2023.
5. Hall C.M. *Crisis and Risk Management in Tourism*. Routledge, 2022.
6. Information Technology jurnalida: Wang L. *Artificial Intelligence in Tourism Safety Monitoring*. Singapore, 2024.
7. World Travel & Tourism Council. *Safe Travels Framework 2024*. London, 2024.
8. European Union. *Tourism Safety Standards in Europe*. Brussels, 2023.
9. Tourism Committee of Uzbekistan. *O‘zbekistonda xavfsiz turizmni rivojlantirish konsepsiyasi*. Toshkent, 2024.

